



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

ЗДОРОВЬЕ НАРОДА — БОГАТСТВО СТРАНЫ

# PEDIATR

№ 21-22 (918-919)  
5-fevral, juma  
2021-yil

TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI  
ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО  
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТА

Gazeta 1974-yil  
mardan chiqqa  
boshlagan

## ADABIYOT – INSONShUNOSLIK POYDEVORI

**B. T. DAMINOV,**  
**ToshPTI rektori,**  
**Xalq deputatlari Toshkent**  
**shahar kengashi deputati**

“Olam ahli bilingizkim, ish emas dushmanlig‘, Yor o‘lung bir-biringizgaki, erur yorlig‘ ish”, – deya ta’kidlab o‘tgan edilar Alisher Navoiy bundan bir necha asr muqaddam. Darhaqiqat, Navoiy olam ahliga ish, ya’ni sening har ezgu amaling – dushmanlig‘ emas, aslida u sening bu olam ahliga qilgan tortig‘ing. Bir-biringizga yor, ya’ni mehribon va ahil bo‘ling deya qalamga olar ekan, kelajak avlodga umid bilan yuzlanadi hazrati Navoiy. Zero, tibbiyot – inson salomatligini mustahkamlaydigan soha bo‘lsa, adabiyot – inson yuragini va ruhiyatini o‘stiradigan soha hisoblanadi.

Navoiy hazratlarining nafaqat ijodiy olami har bir davr adabiy muhitining asosi sanalsa, hayot yo‘li har birimizga ibrat maktabi bo‘la oladi. Navoiy hazratlari shu o‘rinda ko‘pgina xalqparvarlik siyosatini amalga oshirgan: shifoxonalar, kutubxonalar qurdirib, ariqlar qurdirgan. Jumladan, Ixlosiya, Nizomi-

ya, Xusraviya kabi madrasalar, Xalosiya, Fanoiya kabi xonaqohlar, “Shifoysi” tabobatxonasi, “Dorul-huffoz” nomli qiroatxonalar, o‘nlab masjidlar qurdirganini hamda har yili ikki mingga yaqin beva-bechoralarga homiylik ko‘rsatganini misol tariqasida keltira olamiz. Demak, ijodkor nafaqat ijodiy olami bilan, balki hayot yo‘lidagi amallari bilan namuna bo‘la olishi dar-kor. Negaki, xalqimiz ijodkorlari jamiyat ma’naviyati asoschilari sanaladi.

Shoh va shoир, buyuk sarkarda Amir Temurning avlodi hisoblangan Zahiriddin Muhammad Boburning ijodiy olamida Navoiy hazratlari singari boqiy satrlarga duch kelamiz: ”Chun gardishi charx budurur, Tengri uchun Bir-birni necha kuni g‘animat tutungiz”. Darhaqiqat, Bobur nazdida – charx, ya’ni o‘n sakkiz ming olam shuki, Tangri uchun hamda Vatan uchun bir-birini – xalqni, ajdod va avlodni g‘animat tuting, ya’ni salomatlik va ruhiyatini asrab-avaylang deyilgan. Zero, Bobur Vatan sog‘inchini his qilgan, amali shoh bo‘lgan “qalb gadosi” edi. O‘z kechin-malaridan kelib chiqqan holda

yozar ekan, har satrida Vatanga bo‘lgan muhabbat jo‘s uradi. “Boburnoma” memuar asarida ham buning dalili ni ko‘ramiz. Ushbu asarida Bobur nafaqat, geografik jihatdan, balki tibbiyot va adabiyot sohalari hamda bir qator tarixiy ilmlarini qalamga olgan. “Boburnoma”ni qomusiy asar deya olamiz.

Adabiyot shunday olamki, uning hech bir vakili yomon amallarga qodir bo‘lmaydi. Chunki adabiyot – insonshunoslikni shakllantridi. Insonshunoslik bu – qalb a’moli va jismning a’moli chambarchas bog‘liq bo‘lgan ezgulikning atalishi desak yanglishmaymiz. Balki bu sohada formula va raqamlardan iborat chuqr nazariya mavjud emasdir, ammo har birimiz ushbu insonshunoslikni shakllantiramiz. Har bir qalb bu “soha”ning vakilidir, ayniqsa, xalqimizning ijodkorlari bu borada xizmati katta. Zero, adabiyot va tibbiyot – kelajakning tamal toshidir. Chunki ruhiyat va jism birlashmasi haqiqiy insonni voyaga yetkazadi. Bu borada o‘sib kelayotgan yosh ijodkor va shifokorlarimiz jamiyatga o‘z amallari bilan hissa qo‘shishiga ishonamiz.

## ILMGA E'TIBOR – SHAROITDAN BOSHLANADI

*Har bir davrning o‘z qiyin chilik va yutuqlari bo‘lgan. Millat qachon ma’naviyati yuskak yoshlari bilan faxrlana ola-di? Qachonki, farzandlarining tarbiyasini to‘g‘ri talqin qila olsa va yoshlari ga ta’lim yo‘li-dagi shart-sharoitlarni yetarli-cha yarata olsa. Negaki, mana shundagina biz dunyo miqyosi-dagi rivojlanish darajasiga erishamiz. Donishmand xalqimiz aytadilar: “Avval iqtisodiyot mustahkam bo‘lsin, keyin bo-qiy – siyosat!”. Darhaqiqat, vatanga munosib yoshlarni tarbiyalash uchun, avvalo, ularni yetarli shart-sharoitlar bilan ta’minalash lozim!*

*Bugun oliygohimiz talabalarini an’anaviy ta’limni boshlashgan ekan, ularning yashash sharoiti bilan tanishish uchun yig‘ildik. Viloyatlar hududida istiqomat qiluvchi talabalari-mizning poytaxtdagi vaqtincha yashash sharoitlari haqida muloqot olib borar ekanmiz, ayniqsa, qizlarning yashash sharoitidagi muammolari borligini his qildik.*


*201-guruh – “Davolash ishi” yo‘nalishi talabalaridan biri Gulira’no Rustamovaga ijara*

sharoiti haqida quyidagicha savol berdik:

– Ijarada turishning qulayliklari va muammolari nimada deb o‘ylaysiz?

– Albatta, qulayliklari bor: dush alohida, mahsulot saqlash uchun muzxonamiz bor, bo‘sh vaqtimizda o‘zimizning xonalrimizni yig‘shtiramiz va o‘qish va amaliyotdan kech qolgan holimizda ham uy egalari bunga e’tiroz bildirishmaydi. Muammolariga kelsak: narx masalasi qimmat, ayniqsa, talabalarining ijara turar joylariga ehtiyoji ortgani sayin bu muammoga ko‘p guvoh bo‘lamiz. Negaki, ko‘pgina ijara turar joy egalari talabalarga uyini ijaraga berishni xohlashmaydi. Ba’zida biz talabalar narxning qimmatligi uchun arzon tushishi maqsadida bir xonaning o‘ziga 8 va 9 nafar ijarachilar turgan vaqtlarimiz ham bo‘lgan. Suv quvurlari eskirgan ijara turar joylari ichimlik suvlari yetarlicha ta’milanmaydi va uy egalari ko‘p hollarda bu kabi to‘lovlarini bo‘ynimizga yuklab qo‘yishadi.

*O’tkir Vakhobov:*



– Kamchiliklari: qimmat, masalan, 600 ming so‘m o‘rtacha bir ijarachi boshiga hisoblanadi va ko‘p hollarda o‘g‘il bolalarga ijara turar joylarini berishni xohlashmaydi. Masofaning uzoqligi, ayniqsa, darsga kech qolishimizga sabab bo‘ladi. Kommunal to‘lovlar biz talabalarga yuklanadi, bu esa yashash sharoitimizni qiyinlashtiradi, albatta. Foydalariга kelsak: biz yigitlar uchun rejimsiz hayot (kuladi).

Ushbu suhbatda 204-guruh – “Davolash ishi” yo‘nalishi talabalarini ayniqsa faol bo‘lishdi. Yuqoridagi savolimizga shu guruh talabasi Uchqun Lapasov quyidagicha javob berdi:

– Ijaraga olgan yashash joyimning ayni damda o‘qish joyimizga yaqinligi barcha sharoitlar bilan ta’milanganligi qulayligi deb o‘layman. Albatta, kamchiligi narx masalasi ayni damda kontrakt-shartnomada o‘qiydigan talabalar uchun ancha qimmatlik qiladi.

*Durdona Hamrayeva:*

– Qulayliklari: xonalrimiz issiq, issiq vasovq suvlari bilan yetarlicha ta’milangan. Muammolari esa: o‘qish joyimizda uzoq joydaligi uchun ba’zan yo‘l tirbandligida qolib, darslarga o‘z vaqtida yetib kela olmayman. Narx masalasi ancha qimmat.

*Abdurashid Umarov:*

– Albatta, qulayliklari ko‘p. Masalan, issiq vasovq suv meyorida, gaz va chiroq bor.

Narxi hamyonbop. Barcha sharoitlari yaxshi. Deyarli muammolari yo‘q.

**Mohidil Xudoyorova:**

– Ijara turar joyining qulayliklari: odam sonining kamligi va sharoit qulayligi. Muammolariga kelsak: oliygohimizdan ancha uzoq, ayniqsa, qish oylariga muammo tug‘diradi. Narxlari ancha yuqori, bu esa talabalarga qiyinlik qiladi.

**Sardor Qosimov:**

– Ijara turar joylarining qimmatligi va uzoqligi muammo keltiradi, qulayligi esa barcha sharoitlari yetarli.

**Xudoyor To‘xsanov:**

– Hamma sharoitlar yetarli, dars qilish uchun alohida stol-stullar bilan ta’milangan. Muammosi: uzoqligi sababli darsga kech qolib turaman.

Ushbu talabalar so‘zlariga quloiq solar ekanmiz, buyuk donishmandlarimizning:”1 soatlik dars – buyuk kela-jak”,- deganlarini bexos esga olasiz. Chunki darsga ijtimoiy sabablar orqali kech qolayotgan talabalar mana shunday darsdan ta’limga kechikadi. Endi oliygohimizga talabalikka qabul qilinib, oq libosiga mehr qo‘yayotgan 1-bosqich, 101-guruh – “Davolash ishi” talabalari quyidagi savolga shunday javob berishdi:

*– Ijarada turishning qulayliklari va muammolari nimada deb o‘ylaysiz?*

– Ijarada turar joylarining qimmatligi muammo tug‘diradi. Qulayliklari esa oliygohimizga yaqinligi,- dedi shu guruh talabasi Bekzodxon Ismatov.

– Xonalarimiz issiq va bozorga yaqin (kuladi). Noqulayliklari: oliygohdan uzoq, konditsioner yo‘q va narx ham qimmat,- dedi shu guruh talabasi Doston Abdurazzoqov.

– Muammolari ko‘p, albat-ta: lift yo‘q, yozda issiq, qish mavsumida esa sovuq,- dedi shu guruh talabasi Nodirbek Qo‘ldoshev.

– Qulayliklari: barcha shart-sharoitlar yetarli, dars tayyorlashga ham muammo tug‘dirmaydi. Muammolari esa: narx qimmat, oliygohdan ancha uzoq joylashgan,- dedi shu guruh talabasi Nafisa Berkisheva.

– Barcha sharoitlari yaxshi, muammolari: narx masalasi qimmat va masofa uzoq,- shu guruh talabasi Xushniza Tolibova.

– Qulayliklari: oliygoha yaqin, xonalari issiq. Noqulayliklari: avvalo odam soni ko‘p va dars qilish qiyin. Yoz oylarida issiq va qishda sovuq, el qatori narxi qimmat,- shu guruh talabasi Shahrizoda Tursunboyeva.

102-guruh – “Davolash ishi” yo‘nalishi talabalaridan Diyor Ismatov yuqoridagi savolimga shunday javob berdi:

– Hamma shart-sharoitlar bor. Gaz va chiroqdan muammo yo‘q. Uy egasining o‘zi har haftada xabarlashib turadi toza-likka. Narx o‘rtacha. Muammolarini aytadigan bo‘lsam: issiqlik muammosi qiyin, xonalar sovuq qish mavsumida.

**Asilbek Abdullayev:**

– Ko‘p qavatli uylarda istiqomat qilaman. Barcha qulayliklariga ega. Suv va gazdan muammo yo‘q. Narxni ham kelishilgan holda to‘layman. Muammolari yo‘q hozircha.



**Mubina Adhamjonova:**

– Hozirgi pandemiya sharoitiga moslangan xonalarga turamiz. Barcha xonalari shinam va sharoitlari yetarli. Ammo muammolariga to‘xtalsam: oilada men va opam kontrakt-shartnomaga asosida o‘qiganimiz uchun to‘lovlar qimmatlik qiladi. Bu masalada, fikrimcha, har bir ijarada turadigan talabada muammo bo‘lsa kerak.

Yuqorida keltirilgan mu-loqat natijalariga ko‘ra bugun ijarada istiqomat qilayotgan talabarni qiyayotgan asosiy muammo – narx masalasi ekan. Chunki talaba hali tu-gallanmagan oliy va ishlashga layoqati ham to‘liq emas. Ular hozirda yetarlicha bilim va ko‘nikma olishlari zarur. Oilasidan ta’milanadigan talaba-yoshlarning bu kabi muammolari yurtboshimiz tomonidan alohida ko‘rib chiqilmoqda. Joriy o‘quv yilidan oilasida ikki va undan ortiq oliy o‘quv yurtlarida kontrakt-shartnomaga asosida tahsil olayotgan farzandi bor bo‘lgan oilalarga imtiyozli kredit to‘lovlarini berilishi qonunda rasman belgilandi. Mana buni ham bugungi islohotlarning yaqqol dalili deya olamiz. Zero, bugungi yoshlarmiz – ertaning egalaridir.

**Dilafro‘z ChORIYEVA  
yozib oldi**

# “BERDAQ VA BUGUNGI KUN”



## Berdaq asarlarining dolzarbligi

Berdaq qoraqalpoq xalqining mashhur demokrat shoiridir. Shoirning asl ismi Berdimurod Qarg‘aboy o‘g‘li bo‘lib, Berdaq uning taxallusidir. Uning tarjimai holi va ijodiga oid ma’lumotlarini, asosan, o‘zining asarlarida uchratish mumkin. Berdaqnii ilmga bo‘lgan muhabbat yoshligidan paydo bo‘la boshlagan. Xalq qo‘shiqlari, afsona va ertaklar, maqol-matallar, doston hamda ustoz shoirlarning ijod mahsullaridan bahramand bo‘lib, o‘z ijod yo‘lini shakllantira oldi. Berdaq ijodida xalqning og‘ir qashshoq qatlaming sharoiti va holini qalamga olishiga ko‘p guvoh bo‘lamiz. Ijodkor insonparvarlik, tenglik, saxiylik,adolat, vatanparvarlik, mehrshafqat, qahramonlik, ozodlikka bo‘lgan intilish, insonlar orasidagi umuminsoniy tuyg‘ular hamda muhabbat mavzularini keng yoritib bergen. Ayniqsa, Xiva xonligi va Chor Rossiya hukmronligi davri zulmkor

hokimiyatning asl g‘oyalarini ochib berishga Berdaq o‘zini baxshida etgan. Demak, hokimiyat xalqni anglamasa, bu davlat tanazzulga yuz tatar ekan. Ijodkor mana shu mavzuni boricha olib chiqdi. Xalq va hokimiyat bir tan-u bir jon bo‘lsagina davlat chegaralari va kelajagi mustahkam bo‘ladi. Zero, kela-jak xalqning umidi va hokimiyatning asosidir.

Munisa TO‘RAYEVA

## Berdaq va biz

Bugun mehnat qilsak, ertaga erkin va farovon avlod kelajagini qura olamiz. Buning uchun har birimiz mas’ulmiz. Tariximizning yorqin namoyondalaridan biri Berdaq o‘z hayotini mana shu kelajakka bag‘ishlagan. Shoir umri davomida yoshlarga qarata millat faxri ekanligini uqtirib keldi. Mana necha yillarki uning ovozi siyohi qotmagan yangi she’rdek yangrab turibdi. Zotan Vatanga muhabbat, kelajakka umid beradigan satrlarda ozod-

likka tashna ohang bor. Shoir o‘zida yo‘q bo‘lgan erkin nafasni avlodlarida ko‘rishni istadi. Shuning zamirida biz yoshlarga Vatanni sevishni o‘rgatdi. Adolat o‘zimiz ekanligimizni, bugunning nafasida yashash vaiftixor tuyg‘ularini ijodkor biz yoshlarga meros qoldirdi. Nega-ki, bugun Berdaq nomi tillarda dostonga aylanib ulgurdi. Bugun uning merosini kelgusiga avlodga topshirish ishlarini biz yoshlarning vazifamiz sanala-di. Chunki Berdaq umrini xalq uchun tikkan haqiqiy ijodkordir. Xalq bolasini hech qachon unutmaydi. Uning nomi bizning nafasda tirikdir.

Alibek ABDULLAYEV

## Berdaq ijodida bugun

Taniqli shoir va mutafakkir Berdaq ko‘pgina Sharq mutafakkirlari moddiy va ma’naviy olamni ruhning ko‘rinishi sifatida talqin etadi. U tabiatga inson ko‘zi bilan qarash muhim masala ekanligini asrlar ortidan baralla aytgan. Bugun muhofaza-ga muhtoj bo‘lib borayotgan ona tabiatning muammolarini necha yillar oldin Berdaq achi-nish bilan qalamga olgan edi. Har bir xalqning o‘z madaniyati va ma’naviyati bor. Har ikkalasi ham o‘sha xalqning millat ruhi-da shakllanadi. Bevosita yoki bilvosita shakllanishidan qat’i nazar bu ikki qarash Vatanga munosib avlodni yetishtiradi. Zero, har birimiz bugunning nafasida Berdaqnii taniyapmiz. Kimki Vatanga beminnat xizmat qilsa, uning nomini kelajak avlod bugunida ardoqlaydi. Ber-

daq ijodi bugunning eng muhim mavzusi sanaladi.

**Munira IBRAGIMOVA**

**Ikki xalqning madaniyat ko‘prigi**

Berdaq – ikki xalq orasida ma’naviy-ma’rifiy ko‘prik bo‘la olgan shaxs edi. Xalqning dardini qalamga olib, xon zug‘umiga uchragan ijodkor hayoti ancha qiyinlashadi. Negaki, xon adl satrlari bilan xalqni ruhlantirayotgan Berdaq ijodiga tik qaray olmadi. Chunki u yonidagi “xo‘jako‘rsin”ga maqtovlarga ishonib qolgan, xalqning qorni va ruhiyati bilan ishi bo‘lmagan amaldorlar qurshovidagi bir inson edi. Ammo Berdaq so‘zidagiadolat mana bugungi kungacha tik yetib keldi. Hayot va xayolot orasidagi masofaning ahamiyati yo‘q ekan. Buni Berdaq ijodida ko‘rishimiz mumkin, albatta. Ijodkor hayotni go‘zallashtirish uchun xayolot mahsulini ochib bera oldi. O‘zi orzu qilgan turmush tarzi va kelajakni she’rlari bilan baralla kuyladi. Garchi bu orzularda barcha xalqlarning do‘sligi – birdam tuyg‘ulari bor edi. Qaysi xalq vakili bo‘lishidan qat’i nazar yuragi bittadir. Yurakdag muhabbati va orzusi o‘xshashdir. Shuning uchun ham jahon ababiyoti vakillarini ham bugungi kungacha barcha xalq sevib mutolaa qiladi. Uning dini, tili va millatidan qat’i nazar tuyg‘ulari bitta, umidlari o‘xshash. Tinchlikni seuvuchchi yuraklari kelajakni adl ko‘rishni xohlaydi. Zero, Vatan bu – tug‘ilgan tuproq bilan chegaralanmaydi. U ming asrlik qadriyatlarining makonidir. Berdaq ijodida

mana shu kabi g‘oyalar ilgari surilgan. Madaniyat esa millat tanlamaydi. U qalblarda shakllanadi. Madaniyat ko‘prigi bo‘la olgan ijodkorning ijodiy merosini baholab bo‘lmaydi. Chunki Berdaq qoraqalpoq va o‘zbek madaniyatining ko‘prigi va millatning kuychisi edi.

**Muqaddas MAJLIMOVA**

**Ijodkor va zamon**

Inson va uning hayotidagi ijtimoiy muammolari haqida Berdaqning ijodiy meroslari da ko‘ramiz. Uning qahramonlari doimo rostgo‘ylik tarafdoi va adolatli tasvirlangan. Yana u asarlarida xalqning oddiy muammolaridan tortib xon qatlqidagi tengsizlikkacha ro‘y-rost ochib bergen. Chunki bu ijodkor zamon nafasi bilan yashab qolmaydi. Bugungi kun ijodkorlari orasida guruch kurmaksiz bo‘lmaganidek, zamon uchun ijod qiladiganlari ham yo‘q emas. Negaki, zamoniga qarab ijodiy olamlari ham “zamonaviylashib” boryapti. Adabiyot yolg‘onni yoqtirmaydi. Chunki uni xalq mutolaa qiladi. Xalq esa necha asrlarki adolatni so‘rab, demokratiya davlatni qurishga harakat qilib keldi va bugun orzulari ro‘yobini ko‘rdi. Vatan nima degan savolga oddiy qilib, “kindik qon to‘kilgan makon”, deydigan zamon o‘tdi. Bu savolga – “Vatan bu – millatlarning muhabbatidan qurilgan tinch go‘shadir!” deydigan zamondamiz. Chunki tinchlik ne‘mati qadrlanmas ekan, u millat tanlamaydi, madaniyat tanlamaydi, din tanlamaydi va aqidaparast kuchlar tinchlikka raxna solaveradi. Millatlar va zamon nafasi hamdo‘sligigina

tinchlikni asray oladi. Zamon ijodkorni emas, ijodkor zamonni yaratishi kerak. Bugun ijodkorlar zamon talabi bilan emas, zamonni yaratib yozishi kerak. Zero, Berdaq zamonni o‘z ijodiy olami bilan bizgacha yaratib bera oldi.

**Ziyodulla IBODULLAYEV**

**Nafasi o‘lmagan satrlar**

“So‘zim o‘lmas, doim tirik qolaman, Xalqim bor-ku, yovdan o‘chim olaman”, - degan o‘lmas satrlari qalbimizda yashab kelmoqda. Qoraqalpoq xalqining sevimli shoiri bo‘lgan Berdaq qalami tom ma’nodagi haqiqat kuychisi edi. Uning she’rlarida insonparvarlik, adolat, vatanparvarlik, qahramonlik va mardlik, ozodlik va haqiqat uchun kurash kabi umuminsoniy qadriyatlarini aks ettirgan. Uning ijodida o‘sha davrning nohaqliklariga bo‘lgan tanqid ko‘p uchraydi. Berdaqning yuksak insonparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan adabiy-badiiy, ijtimoiy-siyosiy hamda falsafiy g‘oyalari bilan sug‘orilgan ijodi hozirgi mustaqillik davriga ham tarbiyaviy mohiyati bilan xizmat qiladi. Nafasi bugungidek siyohi misli hamon qotib ulgurmagan Berdaq ijodi asrlarning kuyiga aylandi. Hayot va ijod yo‘li bilan xalqqa beminnat xizmat qilgan ijodkor umrbod o‘zbek va qoraqalpoq xalqlarining yuragida yashaydi. Negaki, nafasi o‘lmagan satrlarda yosh avlodlarga bo‘lgan yuksak ishonch bor. Mana shu ishonchni oqlash uchun ajdodlarimizga munosib avlod bo‘lib, Vatanga xizmat qilishimiz lozim.

**Dildora ZIYODULLAYEVA**

## VATAN MUQADDAS



Vatan bu – so‘zda ulkan ma’no mujassamdir, kimdir uni onaga taqqoslasa, yana kimdir kindik qoni to‘kilgan o‘z uyiga o‘xshash makonni tasavvurida gavdalantiradi. Inson bor ekanki, Vatanni uning uchun jonini berishga tayyor mard insonlar ularning farzandlaridir. Bundan necha asr muqaddam yashab o‘tgan Navoiy hazratlari timsolida xalqi uchun umrini tikkan shaxs obrazini ko‘ramiz. Bunga misol tariqasida Navoiy hazratlarining har yili 20 ming beva-bechoralarga ehson qilib, uy-joylar qurdirgani, turli madrasa-yu shifoxonalar barpo qilgani haqida tarix zarvaraqlarida guvoh bo‘lamiz. Zero, inson nima bilan inson degan savolga Navoiy hazratlari umuminsoniy tuyg‘ularni misol tariqasida keltirib o‘tgan.

Shu jumladan, bizning oliyogohimizda ham umuminsoniy qadriyatlarga bo‘lgan hurmat beqiyosdir. O‘z qasamyodiga chin yurakdan sodiq qolgan bizning Toshkent pediatriya instituti talabalari hamda “Yoshlar ittifoqi” a’zolari zaxiradagi harbiy xizmatchilarimiz buni yana bir bor isbotlashdi, ya’ni kuni kecha mehribonlik uylariga borib yoshlar holdan xabar olishdi.

Ular yana Yunusobot tumani-dagi mahalladagi ijtimoiy himoyaga muhtoj, boquvchisini yo‘qotgan, yoshi keksa aholi holdan xabar olishdi va ularni oziq-ovqat mahsulotlariga ko‘maklashishdi.

Mehr-muruvvat, xayrsaxovat kabi ezgu fazilatlar xalqimizning azaliy qadriyatlari sirasiga kiradi. Shu kabi yana bir uchrashuv “Ko‘p Tarmoqli Davlat Ixtisoslashtirilgan Maktabgacha Ta’lim Muassasasi”da tashkil etildi. Zero, Vatan nomi faqat she’r misralarida emas, har birimizning bajarayotgan amallarimizda abadiylashadi. Kimki bir nihol eksa, Vatanga meva beradigan bir saxovat ko‘rsatgan sanaladi. Demak, har birimiz o‘z kelajagimizga befarq bo‘lmagan holda bugun bir insonga saxovat qo‘lini tutsak, ertaga Vatan uchun bitta nihol ekkan bo‘lamiz. Dono xalqimizda shunday naql bor: “Duo bilan el ko‘karar”. Darhaqiqat, keksalarimiz duolari bilan biz doimo omonlikka erishamiz. Negaki, o‘zbek xalqi azaldan bolajon va mehmondo’st xalq hisoblanadi.

Har bir ayol bu – onamiz, har bitta go‘dak esa bizning uka-singlimizdir. Demak, hadisi shariflarda keltirib o‘tilganiek, avvalo, yaqinlarimizni rozi qilaylik. Vatanning hech bir bolasi biz uchun begona emas. Zero, Vatan – daraxt bo‘lsa, biz uning shoxlari, ajdodlarimiz esa ildizlaridir. Vatan – muqaddas, uning har bir vakili uni asrashga qasamyod qilgaydir.



**Akramjon ABDULATIOV**  
1-pediatriya  
118-guruh talabasi

## EL SEVGAN IJODKOR



“Har gal yangi nimadir yozganingizda bir nimalar ayt-dim-ov, deb o‘ylaysiz, o‘zingizcha. Lekin, bari dengizdan tomchi. Dildagisini umrning oxirigacha aytib ado qilib bo‘lmas! Muhim gaplarni aytish uchun, avvalo, ko‘ngilda shunday gap bo‘lishi kerak”.

Yozuvchi Erkin A’zamning ushbu fikrlaridan uning ijodga qanchalik mas’uliyat bilan yondashishi yaqqol ko‘rinadi. Ayni paytda nimanidir hali aytolmadim, hali aytadiganlarim ko‘p, deya mushohada qilishi adibni yana ijod og‘ushiga chorlaydi, kitobsevarlarga yangi-yangi asarlarni taqdim qilishiga ishonch uyg‘otadi, nazarimda.

Erkin A’zam badiiy olamining tematikasi rang-barang. Uning biror asarini shunchaki o‘qib bo‘lmaydi, zero, adibning turli janrdagi asarlari kitobxonni o‘ylatadi, asar qahramonlari bilan birga yashashga undaydi. “Navoiyni o‘qigan bolalar”, “Stupka”, “Otoiyning tug‘ilgan yili”, “Tanco qayiq”, “Suv yoqalab” va yana bir qancha...

Ijodkor bilan dildan suhbatlashish, qiziqtirgan savollarga javob olish maqsadida 2021-yil 5-fevralda Toshkent pediatriya tibbiyot instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida O‘zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A’zam bilan uchrashuv tadbiri tashkil qilindi.

Tadbirni kafedra mudiri, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, shoira Kavsar Turdiyeva kirish so‘zi bilan ochdi. Yozuvchining hikoyalari, kinosse-nariylari, dramaturgiyasi to‘g‘risida fikr-mulohazalarini bildirdi. Tadbirda institutning professor-o‘qituvchilari hamda talabalari ishtirok etib, o‘zlarini qiziqtirgan savollari bilan adibga murojaat qildilar. Xususan, talabalar ijodkorning adabiyot maydoniga kirib kelishi, ustozlari, shogirdlari, ke-lajakdagি orzulari haqida qiziqib so‘rashdi.

Erkin A’zamning “Tanco qayiq” asarining yaratilishi bilan bog‘liq savol ko‘pchilikda qiziqtirish uyg‘otdi: Dramada Orol muammo-si qalamga olingan, garchi bugungi kunda bu butun dunyoga taalluqli bo‘lsa ham, ko‘proq qoraqalpoq xalqining og‘rig‘i, azobi. Meni qiziqtirgan savol: Nega o‘zlariga juda yaqin bo‘lgan muammoni biror qoraqalpoq ijodkori emas, aynan siz olib chiqdingiz, bunga kim yoki nima turtki bo‘ldi?

Ushbu savolga adib shunday javob berdi: “Dramaning yaratilishiga rejissor Bahodir Yo‘ldashev turki bergandi. Bir kuni oldiga chaqirib, Orolning qurishi natijasida odamlar tug‘ilib o‘sgan joylarini tashlab ketayotgani, le-

kin bir chol o‘z shogirdlari bilan hech qayoqqa ketmasdan kema yasashlari haqida gapirib berdi. Mana shu chol va uning shogirlaridagi vatanparvarlik tuyg‘usini sahnaga olib chiqish, yoshlar-ga ibrat qilib ko‘rsatish kerakligini tushuntirdi. Oldiniga rozi bo‘lmadim, lekin baribir asarni yozdim. Bilasizmi, birorta asar ustida shu asarchalik ko‘p ishlamaganman”.

Shundan keyin, adib hayotda yuz berayotgan o‘zgarishlar, yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, ba’zi kichik muammolar haqida ham o‘z fikrlarini aytib o‘tdi. Talaba-yoshlarga o‘zining samimiy tilaklarini bildirdi. Uchrashuv juda qiziqrarli va samimiy o‘tdi, barchada iliq tuyg‘ular paydo qildi.

Fikrlarimiz intihosida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2019-yil, 19-martda qabul qilin-gan 5 ta tashabbusning to‘rtinchи tashabbusi yoshlar ma’naviyati ni yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilganligini keltirib o‘tishni joiz deb bildik.

**T. ABDISHARIPOVA**  
*Toshkent pediatriya tibbiyot instituti akademik litsey ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*



## BERDAQ IJODIGA BAG'ISHLANGAN ANJUMAN

Joriy yilning 29-yanvar kuni Toshkent Pediatriya tibbiyot institutida ZOOM platformasi orqali "Qoraqalpoq xalq shoiri Berdaq asarlari ma'nnaviy barkamol avlodni tarbiyalashda muhim manba" mavzusida xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi. Konferensiyada Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti hamda Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining professor o'qituvchilari va talaba yoshlari ishtirok etishdi.

Konferensiyani Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining yoshlari bilan ishslash bo'yicha prorektori M.A.Axmedova kirish so'zi bilan ochdi.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi Boshqarma boshlig'i O.X.Bozorov so'zga chiqib, poytaxtimizdagi "Adiblar xiyoboni"da haykali o'rnatilgan yozuv-chi-shoirlarning hayoti va ijodi oliy o'quv yurtlari tomonidan o'rganilayotganligi, jumladan, Berdaq ijodining yoshlari tarbiyasi-dagi o'rni haqida batafsil gapirdi. Konferensiyada Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori Q.Jarimbetov "Berdaq xalq dardini kuylagan shoir", O'zR Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti direktori, filologiya fanlari nomzodi A.I.Al-niyazov "Berdaq asarlarini tekstologik tahlil qilish masalalari", Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi Q.Mambetov "Berdaq ijodining o'zi-

ga xos xususiyatlari", "Berdaq asarlarining o'zbekcha tarjimalariga bir nazar" nomli ma'rur-zamda xalq dardini kuylagan qoraqalpoq shoirining serqirra ijodi xususida so'z boradi. Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti Tibbiy-pedagogika va davolash ishi fakulteti 2-kurs talabasi F.E.Eshonboboyevning "Berdaq hayoti va ijodi yoshlarga ibrat" mavzusidagi ma'rurasini ishtirok-chilarda qiziqish uyg'otdi.

Konferensiya so'nggida o'qilgan ma'ruzalar yuzasidan bahs-munozaralar bo'lib o'tdi. Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi.

*Gulandom QURAMBOYEVA  
ToshPTI O'zbek tili va  
adabiyoti kafedrasini dotsenti*

## O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

*Professor-o'qituvchilar tarkibi bo'yicha quyidagi kafedralar lavozimlariga TANLOV e'lon qiladi:*

**DOTSENTLAR:** Asab kasalliklari va bolalar asab kasalliklari;

Mikrobiologiya; Oftalmologiya, bolalar oftalmologiyasi; Teri tanosil, bolalar teri tanosil kasalliklari, OITS.

**KATTA O'QITUVCHILAR:** Pedagogika va psixologiya.

**O'QITUVCHILAR:** Xorijiy tillari.

**ASSISTENTLAR:** 1-Gospital pediatriya noan'anaviy tibbiyot asoslari; UASH-terapiya; Akusherlik va ginekologiya, bolalar ginekologiyasi; Tibbiy radiologiya; Oftalmologiya, bolalar oftalmologiyasi; Anesteziologiya va reanimatologiya, bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi; Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish; Bolalar kasalliklari propedevtikasi; Gistologiya; Endokrinologiya va bolalar endokrinologiyasi; Fakultet ichki kasalliklari, XDT, kasb kasalliklari, gospital ichki kasalliklari, ichki kasalliklari propedevtikasi; Allergologiya; Patologik fiziologiya; Onkologiya, bolalar onkologiyasi; Psixiatriya, narkologiya va bolalar psixiatriyasi, tibbiy psixologiya, psixoterapiya.

**Tanlov muddati – e'lon chiqqan kundan 1-oy. Manzilgoh Bog'ishamol ko'chasi 223, Tosh PTI.**

**Avtobuslar: 115, 19 ToshPTI bekati. 02.05.2021.**

 <p>TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСИУТА</p>	<p><b>Tahrir kengashi:</b> D.A. Asadov, A.V. Alimov, X.F. Haydarov, M. Ahmedova, K.N. Haitov, S.S. Gulyamov, D.T. Ashurova, A. Rahmatullayev, S. Nurxodjayev A. Valiyev, A.A. Kudayberganov, <b>Nashr uchun mas'ul:</b> R. G'o'chchiyeva</p>	<p><b>Bosh muharrir:</b> B.T. DAMINOV Tahrir hay'ati: (ishchi guruh) E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva <b>(Bosh muharrir o'rinnbosari),</b> A.M. Mannonov, D.A. Ahmedova, H. Rasulov S.A. Begmonov, A. Nosirov, Z. Karimova, A. Xudayberdiyev</p>	<p>Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro'yxatga olingan.  Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog'ishamol ko'chasi, 223</p>
<p>Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.</p>			